


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-mart oylarida Jizzax viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 6 368,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023- yilning yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda 7,7 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2023- yilning yanvar-mart oylari narxlariga nisbatan 109,4 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Jizzax viloyatining qo'shgan hissasi 2,6 % ga yetdi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida Jizzax viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi

2024- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2023- yil	2024- yil	
I. YAHM, jami	5 404,2	6 368,6	107,7
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	5 180,6	6 152,5	107,6
mahsulotlarga sof soliqlar	223,6	216,1	109,6
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	5 180,6	6 152,5	107,6
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 649,8	1 852,5	103,3
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	1 418,4	1 677,6	113,3
sanoat	1 136,1	1 327,4	112,8
qurilish	282,3	350,2	115,3
xizmatlar	2 112,4	2 622,4	107,1
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	457,8	552,4	110,5
tashish va saqlash, axborot va aloqa	248,3	308,6	114,1
boshqa xizmat tarmoqlari	1 406,3	1 761,4	104,8

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 4 215,1 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 5,4 % ga yuqoridir.

2024- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi
(ming so'mda)



2024- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



**Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YAHM tarkibi**
(jamiga nisbatan % da)

	2023- yil	2024- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	95,9	96,6
mahsulotlarga sof soliqlar	4,1	3,4
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	31,8	30,1
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	27,3	27,3
sanoat	21,9	21,6
qurilish	5,4	5,7
xizmatlar	40,9	42,6
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	8,8	9,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	4,8	5,0
boshqa xizmat tarmoqlari	27,3	28,6




2024- yilning yanvar-mart oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 96,6 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,4 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 30,1 % ni, sanoat tarmog‘i 21,6 % ni, qurilish 5,7 % ni va xizmatlar sohasi 42,6 % ni tashkil qildi.

Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2023- yil



2024- yil



● Yalpi qo‘shilgan qiymat


● Mahsulotlarga sof soliqlar



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,0 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 0,8 f.p.), sanoat tarmog'i – 2,7 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 0,7 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,8 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – salbiy 0,7 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,8 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 2,0 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,4 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 0,2 f.p.)ga ko'paydi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2024- yilning yanvar-mart oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,3 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 30,1 %), sanoatda – 112,8 % (21,6 %), qurilishda – 115,3 % (5,7 %), xizmatlar sohasida – 107,1 % ni (42,6 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 110,5 % (9,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 114,1 % (5,0 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,8 % dan (28,6 %) iborat bo'ldi.

Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2024- yilning yanvar-mart oylarida YAHM deflyatori indeksi 2023- yilning yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan 109,4 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlar sohasida – 115,9 % va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining – 108,7 % qayd etildi..

Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2024-yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik 4 036,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi (2023- yilning yanvar-mart oylarida – 3 752,2 mlrd. so‘m). YAHMdagi ulushi 65,6 % ni (2023- yilning yanvar-mart oylarida – 72,4 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining ko‘payishi bilan bog‘liq.

Yanvar-mart oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.so‘m

Ulushi, % da

2023- yil

3 752,2

72,4 %

2024- yil

4 036,2

65,6 %

